

Institutimiz fakultet dekanlari o'zgardi

✘ Yer resurslarini boshqarish fakultetiga dekan tayinlandi.

Institut rektorining buyrug'iga ko'ra Yer resurslarini boshqarish fakultetiga dekan vazifasini bajaruvchi lavozimiga Narbayev Sharofiddin Kengeshovich tayinlandi. U 2011 yildan buyon dekan lavozimida ishlab kelayotgan Muqimov Zarif Majlisovich boshqa lavozimga o'tishi munosabati bilan, uning o'rnida 2019 yil 3 yanvardan ish boshlaydi. Sharofiddin Narbayev 1977 yilda tug'ilgan. 2003 yil Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutini tamomlagan. Ma'lumoti bo'yicha mutaxassisligi muhandis-yer tuzuvchi. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). U shu kungacha Yer resurslarini boshqarish fakulteti tarkibidagi "Davlat kadastrlari" kafedrasida dotsent vazifasini bajaruvchi lavozimida faoliyat ko'rsatib kelayotgandi.

✘ Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish fakulteti dekani o'zgardi

Institut rektorining buyrug'iga ko'ra Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish fakultetiga dekan vazifasini bajaruvchi lavozimiga Muqimov Zarif Majlisovich tayinlandi. U 2017 yildan buyon dekan vazifasini bajaruvchi lavozimida ishlab kelayotgan Kucharov Olimjon Ruzimurotovich boshqa ishga o'tishi munosabati bilan, uning o'rnida 2019 yil 3 yanvardan ish boshlaydi. Zarif Muqimov 1972 yilda tug'ilgan. 1995 yil Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutini tamomlagan. Ma'lumoti bo'yicha mutaxassisligi muhandis-iqtisodchi. Iqtisodiyot fanlari nomzodi. U shu kungacha Yer resurslarini boshqarish fakulteti dekani lavozimida faoliyat ko'rsatib kelayotgandi.

✘ Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash fakulteti dekani tayinlandi

Institut rektorining buyrug'iga ko'ra 2019 yil 3 yanvardan Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash fakulteti dekani vazifasini bajaruvchi lavozimida Qo'ziyev Ulug'bek Tadjiyevich ish boshlaydi. 2017 yildan buyon dekan vazifasini bajaruvchi lavozimida Farmonov Erkin Tolibovich ishlab kelayotgandi. 2018 yil 9 iyuldan Erkin Farmonov boshqa ishga o'tishi munosabati bilan, mazkur lavozimda dekan o'rinbosari Ulug'bek Qo'ziyev dekan vazifasini vaqtincha bajaruvchi sifatida ham ish olib borgan. Ulug'bek Qo'ziyev 1981 yilda tug'ilgan. 2006 yil Toshkent irrigatsiya va melioratsiya institutini tamomlagan. Ma'lumoti bo'yicha mutaxassisligi muhandis-mexanik, dotsent.